

MUZEYLAR-TARIX KO‘ZGUSI

Abdullayev Shaxobiddin Norqo‘zi o‘g‘li

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti Sirtqi bo‘lim
Ijtimoiy-gumanitar fanlarda masofaviy ta‘lim kafedrasida stajyor o‘qituvchisi

***Annontatsiya:** ushbu maqolada bizni tariximizni kelajak avlod uchun tanishtirishda muhim omil bo‘lgan muzeylarning tashkil etilishi va ularning faoliyati haqida ma‘lumotlar berib o‘tiladi. Shuningdek, O‘zbekistonda mustaqillikdan keyin tashkil etilgan muzeylar va ularning faoliyati bilan bog‘liq jarayonlarga to‘xtalib o‘tamiz.*

***Kalit so‘zlar:** eksponatlar muzalar, Nineviya, o‘lkashunoslik, gidrometeorologiya, , Lukull, Pompei, Sezar, O‘zbekiston tarixi muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, O‘zbekiston san‘at muzeyi, O‘zbekmuzey, International Council of Museums-Xalqaro muzeylar kengashi.*

***Аннотация:** в данной статье представлена информация об организации и деятельности музеев, которые являются важным фактором в ознакомлении будущих поколений с нашей историей. Также остановимся на процессах, связанных с созданием музеев, созданных в Узбекистане после обретения независимости, и их деятельности.*

***Ключевые слова:** экспонаты, музеи, Ниневия, краеведение, гидрометеорология, Лукулл, Помпеи, Цезарь, Музей истории Узбекистана, Государственный музей истории Тимуридов, Художественный музей Узбекистана, Узбекский музей, Международный совет музеев.*

***Abstract:** this article provides information about the organization and activities of museums, which are an important factor in introducing our history to future*

generations. We will also dwell on the processes related to the established museums established in Uzbekistan after independence and their activities.

Key words: *exhibits, muses, Nineveh, local history, hydrometeorology, Lucullus, Pompeii, Caesar, History Museum of Uzbekistan, State Museum of the History of Timurids, Art Museum of Uzbekistan, Uzbek Museum, International Council of Museums.*

Mustaqillikka erishgan yillarimizda tarixiy o‘tmishimizni qayta tiklashga bo‘lgan e‘tibor kuchaydi va tarixiy o‘tmishimizga qaytadan e‘tibor qaratildi. Tarixiy shaxslarimizning nomlari oqlandi, umumxalq bayramimiz bo‘lib kelgan “Navro‘z” bayrami tiklandi va qolaversa Iyd ramozon va Iyd qurbon xayit bayramlarini ham keng nishonlash hamda dam olish kuni etib belgilandi.

Mustaqillikka erishgandan keyin tariximizni yanada oydinlashtirish yo‘lidagi yana bir muhim qadam bu muzeylar faoliyatini takomillashtirish bo‘ldi desak xato bo‘lmaydi. Tarixni anglashda, uni kelajak avlodlarga qoldirishda muzeylar juda ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu boisdan O‘zbekistonda 90-yillardan keyin ko‘plab muzeylar mamlakatning turli joylarida o‘z ishlarini boshladi, ko‘plab muzeylar butunlay yangidan barpo etildi, boshqalari kapital ta‘mirdan chiqarildi. 1991-1994-yillarda o‘kamizda 73 ta muzey faoliyat olib brogan bo‘lsa, 2017-yilda ularning soni 450 ga yaqinlashdi. Bu raqamlarning o‘zgarishida 1998-yil qabul qilingan “Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risidagi” farmon muhim ahamiyat kasb etdi. Bu farmonga ko‘ra muzeylar davlat muhofazasiga olindi, ularni ta‘mirlash, muzey eksponatlarini boyitish davlat budjeti hisobidan moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlandi. Muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish, ilmiy-uslubiy yordam ko‘rsatish, moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida 1998-yilda “O‘zbekmuzey” Respublika jamg‘armasi tuzildi.¹

Keling muzeylar haqida chuqurroq ma‘lumotga kirishdan oldin muzey o‘zi nima ekanligiga to‘xtalib o‘tamiz.

¹ N.Jo‘rayev, A.Zamonov “O‘zbekiston tarixi” darslik 2018-yil

Muzey (qadimgi yunoncha: *μουσεῖον*, *musion* — „muzalarga bag‘ishlangan joy“) — tarixiy, moddiy va ma’naviy yodgorliklarni to‘plash, saqlash, o‘rganish va targ‘ib qilish ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy, ilmiy-ma’rifiy muassasa. Muzey xazinasida, asosan, moddiy va tasviriy narsalar, shuningdek, san’at asarlari jamlanadi, shu bilan birga yozma manbalar (qadimdan hozirgi davrgacha bo‘lgan tarixiy qimmatga ega qo‘lyozmalar, bosma hujjatlar, kitoblar) saqlanadi.¹ Muzeylar tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak bu bo‘yicha quyidagi ma’lumotlarga yuzlanamiz: Siyosiy, ilmiy, madaniy, iqtisodiy ehtiyojlarni qondiruvchi muzeyning paydo bo‘lish tarixi uzoq qadimga borib taqaladi. Muzeyning o‘tmishdoshlari tabiat va ijtimoiy hayotdan olingan asl buyumlarni xo‘jalik maqsadlarida va moddiy boylik sifatida emas, balki memorial guvohnoma va estetik qimmatli asl narsalar sifatida saqlana boshlagan davrda yuzaga kelgan. Kritdagi Knos saroy xazinasi (miloddan avvalgi 16-asr), Vanlar saroyi va ink kohinlarining arxivi (miloddan avvalgi 13—12-asrlar, Xitoy), Nineviya saroy kutubxonasi (miloddan avvalgi I-ming y.) va boshqa shular jumlasidan. Kdsimdan ibodatxona, keyinroq xususiy to‘plamlarda (miloddan avvalgi 3-asrdan) asosan san’at asarlari jamlangan (Varres, Sulla galereyalari, Serviliy, Krase, Lukull, Pompei, Sezar va boshqa to‘plamlari). Vizantiya sobor va monastirlarida, keyinroq Fransiya, Italiya, Germaniya va boshqa mamlakatlar soborlarida turli xil to‘plamlar saqlangan. Yevropada ilmiy vazifalar yuklatilgan muzeyning paydo bo‘lishi buyuk geografik kashfiyotlar amalga oshayotgan davr — Uyg‘onish davriga to‘g‘ri keladi; bu davrda xayvonot va o‘simlik dunyosi namunalari, minerallar, geodeziya va astronomiya asboblari, etnografik ahamiyatga ega narsalar jamlangan; tabiiy, ilmiy, etnografiya va tarixiy-badiiy noyob narsalar jamlangan saroy to‘plamlari (kunstkameralar, myunskabinetlar va boshqa) shuxrat qozongan. Dastlab muzey va ular haqidagi dastlabki tavsiflar, shuningdek, muzeyshunoslik haqidagi nazariy asarlar ham shu davrda paydo bo‘ldi. Florensiya (L. Medichi, 15-asr), Rim (Vatikan muzeyi, 16-asr), Drezden (Avgust Saksonskiy, 16-asr) va boshqa joylardagi antik davr yodgorliklari to‘plamlari shu davrga mansub.

¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Muzey>

XVII-XVIII-asrlarda keyinchalik ko‘plari davlat milliy muzey negizini tashkil qilgan xususiy to‘plamlar (tarixiy, arxeologik, tabiatshunoslik, san’atshunoslik) shakllandi¹.

O‘zbekistondagi muzeylarning daslabkilari esa 19-asrning 2-yarmida tashkil etila boshlagan. XX-asr boshida O‘zbekistonda faqat 3 muzey — Toshkent o‘lkashunoslik muzeyi (1876, hozirda O‘zbekiston tarixi muzeyi), Samarqand xalq muzeyi (1896, hozirgi Akmal Ikromov nomidagi O‘zbekiston xalqlari madaniyati va san’ati tarixi muzeyi), Farg‘ona xalq muzeyi (1899, hozirgi Farg‘ona viloyat o‘lkashunoslik muzeyi) bor edi. Ularning to‘plamlari kam, ekspozitsiyalarining ko‘pi tasodifiy materiallardan tashkil topgan edi. XX-asr 20-yillaridan turli sohadagi muzeylar tashkil etila boshladi. Muzeylar va madaniyat yodgorliklari davlat ixtiyoriga o‘tkazilib, muhofaza qilina boshlandi. Ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirilib, muzeylar uchun kolleksiyalar to‘plash ishi yo‘lga qo‘yildi va ko‘plab muzeylar tashkil etildi. Hozir O‘zbekistondagi muzeylarning asosiy qismi O‘zbekiston madaniyat ishlari vazirligi qaramog‘ida. Yirik muzeylar: O‘zbekiston tarixi muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, O‘zbekiston san’at muzeyi (1918), Akmal Ikromov nomidagi O‘zbekiston xalqlari madaniyati va san’ati tarixi muzeyi, O‘zbekiston tabiat muzeyi (1876) va boshqalar. Respublikaning deyarli barcha viloyatlarida o‘lkashunoslik muzeyi, jahon ahamiyatiga molik memorial muzeylar bor.

Shuningdek ,muzeylar zamonaviy ilmiy tasnifda tur va sohalar bo‘yicha farqlanadi. Ijtimoiy vazifasiga ko‘ra 1)ilmiy tadqiqot-ma’rifat (muzeyning asosiy qismini tashkil etadi, ba’zan ular xalq muzeyi, ommaviy muzey deb ham ataladi), 2)tadqiqot (ilmiy tadqiqot institutlari qoshida o‘ziga xos laboratoriya vazifasini o‘tovchi) va 3)o‘quv muzeyiga bo‘linadi.

Sohalar bo‘yicha: tarix, qishloq xo‘jaligi, tabiatshunoslik, san’atshunoslik, adabiyot, texnikaga oid va boshqa muzeylarga bo‘linadi. Shuningdek, muzeyning memorial muzeylar, majmua o‘lkashunoslik kabi turlari bor.

¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Muzey>

O‘zbekistonda muzeylarning yangi tarixi 1992-yildan boshlandi va shu yilning o‘zida juda ko‘plab yangi muzeylar tashkil etildi. Masalan, buyuk o‘zbek shoirlaridan biri Boborahim Mashrabning muzeyi Namanganda tashkil etildi, yana Xorazmda hofiz Hojixon Boltaboyev nomi bilan ataluvchi maqomchilar muzeyi, Urganch shahrida „Xorazm amaliy sanati va tarixi“ muzeyi, Buxoroda „Temirchlik muzeyi“, Samarqand viloyatida xalq kuychisi (baxshisi) Islom shoir Nazar o‘glining uy muzeyi tashkil etildi. Keyinchalik 1993-yilda ham bir nechta muzeylar o‘z ishlarini yo‘lga qo‘ydilar, ular orasida Toshkentda ochilgan O‘zbekistondagi birinchi huquqshunos olimi ayol Xadicha Sulaymonova muzeyi, mashhur raqqosa Mukkarramaxonim Turg‘unboyeva muzeyi, mashhur cho‘pon, mehnat qahramoni Jonboy Bashmanov muzeyi Navoiyning Tomdi tumanida tashkil etildi. 1994-yilda xalq rassomi Muhiddin Rahimov muzeyi, 1996-yilda juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan O‘zbekiston gidrometeorologiya muzeyi, Salim Hamidovning uy muzeyi 1997-yilda tashkil etildi^[2]. E‘tiborga loyiq voqealardan biri 1996-yil 1-sentabrda Osiyoda yagona bo‘lgan Olimpiya shon shuhrati muzeyi ochilishi bo‘ldi, bu muzey O‘zbekistonlik sportchilarning jahon miqyosida erishgan yutuqlari va ishtiroklari haqida ko‘plab malumotlar beradi.

O‘zbekistonda muzeylar rivojiga PF-1913-son bilan 1998-yil 12-yanvarda qabul qilingan „Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risidagi“ qonun juda katta ahamiyatga ega bo‘ldi, shundan keyin muzeylar davlat muhofazasiga olindi va muzeylarni yanada rivojlantirish haqida dastur ishlab chiqildi va ular davlat budjeti tomonidan qo‘llab quvvatlandi. 1998-yilda O‘zbekmuzey tashkiloti tashkil etildi va 1999-yilda muzeylar hayotidan xabar beruvchi „Moziydan sado“ jurnali tashkil etildi. Bu jurnal uch tilda o‘zbek, rus va ingliz tilida chop etila boshlandi. 1999-yilda O‘zbekistonda davlat tasarrufidagi muzeylar soni 81 taga yetdi, ulardan 15 tasi tarix muzeyi, o‘lkashunoslik muzeylari soni 23 tani va 10 ta badiiy muzeylar, 20 ta memorial, 8 ta adabiyot, 4 ta tibbiyot muzeylari tashkil etildi. O‘zbekistondagi 10 ta yirik shahar tarixiy shaharlar ro‘yxatga

olingan hisoblanadi masalan: Buxoro, Samarqand, Xorazm, Qo‘qon va boshqalar. Ayniqsa Samarqand juda ham tarixiy obidalarga boy shahar hisoblanib har yili juda ko‘p xorijiy mehmonlar tashrif buyuradi.

Hozirda O‘zbekiston madaniyat vazirligi tasarrufidagi muzeylar 1.350 ming eksponatga ega.

Ta‘lim-tarbiya va ilmiy vazifalarga ega bo‘lgan muzey tizimi taraqqiyotiga obyektiv ehtiyojlar ortib bormoqda. AQSh, Italiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Rossiya va boshqa mamlakatlar eng taraqqiy etgan muzey tizimiga ega.

Muzeylarning butunjahon miqyosida muhim o‘rin tutishini 18-may sanasining Xalqaro muzeylar kuni sifatida belgilanishida ham ko‘rsak bo‘ladi. Xo‘sh bu qanday sodir bo‘ldi?

Xalqaro muzeylar kuni butun dunyo bo‘ylab, 1977-yilda Moskva va Leningradda ICOMning (International Council of Museums — Xalqaro muzeylar kengashi), 11-Bosh konferentsiyasi kengashi bo‘lib o‘tgandan beri nishonlanadi.

1977-yilda muzey jamoatchiligi maxsus tadbir tashkil qilishni xohlashadi va shu asnoda Xalqaro muzeylar kuni tadbiriq etilgan. Rezolyutsiya xuddi shu 1977-yilda Moskvada bo‘lib o‘tgan Xalqaro Muzeylar Kengashining (ICOM) Bosh Assambleyasida qabul qilingan. 1992-yilda Xalqaro muzeylar kunini rasmiy ravishda tashkil etuvchi ICOM Kengashi ma‘lum bir mavzuda tadbir o‘tkazishni taklif qilgan. O‘shandan beri har yili Xalqaro muzeylar kuni turli mavzularga bag‘ishlangan va Xalqaro muzeylar kengashi har doim ushbu mavzu bilan bog‘liq tadbirlarni ko‘rib chiqadi va ularni hamma uchun tushunishga oson shaklda taqdim qiladi. Yildan yilga bu tadbir tobora ommalashib bormoqda. 2007-yilda, ya‘ni oradan 30-yil o‘tib, Xalqaro muzeylar kunida 70 ta davlat qatnashgan. O‘sha yil mavzusi „Jahon merosi uchun barchamiz javobgarmiz“ („Todos somos responsables del patrimonio mundial“) edi.

2015-yilda ushbu tadbirda dunyoning 145 davlatidan 35 mingdan ortiq muzeylar ishtirok etdi¹

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasida quyidagi tanqidiy fikrlar aytilgan edi: “Afsuski, yurtimiz tarixini o‘rganishimizda o‘tgan davrda arxeologik tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmadi. Shuning uchun Fanlar akademiyasining Arxeologiya va San’atshunoslik institutlari faoliyatini, oliy o‘quv yurtlari va muzeylardagi arxeologik izlanishlarni chet ellik hamkorlar bilan birga tashkil etish zarur”.

Shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 12 fevralda “Yurtimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish hamda ularni kelajak avlodga yetkazish, mamlakatimiz muzeylarida saqlanayotgan tarixiy eksponatlarni to‘liq xatlovdan o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi” ishlab chiqildi. Ushbu chora-tadbirlar doirasida muzey ashyolari va kolleksiyalarini to‘liq xatlovdan o‘tkazish tartibi va muddatlari aniq belgilab olinib, ishchi guruhi shakllantirildi. “Milliy muzey tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish va saqlash tartibi to‘g‘risida”gi nizomga asosan o‘z tarkibida 3000 tagacha muzey ashyolari hamda kolleksiyalari bo‘lgan kichik muzeylar fondidagi barcha ashyolar har yili, 3000 tadan ko‘p ashyolarga ega bo‘lgan muzeylarda xatlov ishlari har ikki yilda bir marta o‘tkazilishi belgilandi. Shunga ko‘ra mamlakatimizdagi muzeylarda saqlanayotgan ashyo va kolleksiyalarni xatlovdan o‘tkazish jadal olib borilmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston davlat san’at muzeyi, O‘zbekiston amaliy san’at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi, I.V.Saviskiy nomidagi Qoraqalpog‘iston davlat san’at muzeylarida xatlovdan o‘tkazish ishlari yakunlanmoqda.

Shuningdek, respublikamizdagi muzeylarda 2,4 mln.ga yaqin muzey ashyolari va kolleksiyalari mavjud, hozirgi kunda ularning 90 foizining elektron bazasi

¹ [Mejdunarodniy den muzeev — — Novosti i afisha muzeev Rossii — — www.Museum.ru](#) „The theme“. 22-fevral 2017-yilda asl nusxadan [arxivlandi](#). Qaraldi: 31-may 2022-yil. [„JMD in short“](#) (deadlink). 24-mart 2018-yilda asl nusxadan [arxivlandi](#). Qaraldi: 21-fevral 2017-yil

yaratildi. Termiz arxeologiya muzeyi, O‘zbekiston davlat tabiat muzeyi, Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi, Usmon Yusupov uy-muzeyi, Muxtor Ashrafiy uy-muzeyi, Urganch suratlar galereyasi, Shahrisabzdagi Amir Temur nomli moddiy madaniyat tarixi muzeylari kataloglarining elektron bazasi to‘liq yakunlandi.

Yana qo‘shimcha tarzida ma’lum qilish o‘rinliki, Madaniyat vazirligi tomonidan muzeylarni yanada kengroq targ‘ib qilish, faoliyatini jamoatchilikka ko‘rsatish, sayyohlar uchun jozibadorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston muzeylari yagona portalini yaratish ishlari ham olib borilmoqda¹. Shu bilan birga yana bugungi kunda O‘zbekistondagi muzeylarga virtual sayohat qilish imkoniyati ham yaratildi.

Bugungi kunda respublika muzeylarida turli xildagi buyumlar va eksponatlar mavjud bo‘lib, 2019-yilda muzeylardagi jami asosiy fond eksponatlari soni 2 millionni tashkil etganganligi ham bu borada yurtimizda ko‘plab tarixiy voqealardan xabar beruvchi dalillar mavjud ekanligini aytishimiz mumkin. Noyob eksponatlar soni esa 122,9mingtaga yetgan. Muзей eksponatlarining 24,6 mingtasi rassomlik, 56 mingtasi grafika, 3,8 mingtasi haykaltaroshlik, 71 mingtasi amaliy san’at, 288,1 mingtasi numizmatika, 336,8 mingtasi arxeologiya buyumlari hamda 25,1 mingtasi suratlar, 277,6 mingtasi hujjatlarva 757,7 mingtasi boshqa eksponatlardan iborat². 2019-yilda jami muzeylar soni 100 tani tashkil etgan. Shundan, muzey filiallari soni 44 tadir. Muzeylarga tashrif buyuruvchilar soni esa 7,7 mln kishidan iborat bo‘lib, ulardan o‘quvchi va talabalar foizi 45,0 foizni tashkil etgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda O‘zbekistonda muzeylar faoliyatini rivojlantirish bilan keyingi avlod uchun qimmatli bo‘lgan tarix zarvaraqlarini saqlab qolish ham mumkin. Muzeylarga aholi tamonidan qilinayotgan tashriflar yoshlarimiz ongiga ijobiy ta’sir etibgina qolmasdan, yoshlarda yurtimiz tarixiga qiziqish, vatanparvarlik tuyg‘ularini ham shakllantirishda alohida o‘rin tutadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

¹ <https://xs.uz/uz/post/muzejlar-eksponatlari>.

² <https://yuz.uz/uz/news/muzeylarimiz-va-ularda-saqalanayotgan-eksponatlar>

Xattoki bu borada aholiga turli xil imtiyozli vaziyatlar yaratilganligini ham e'tirof etsak bo'lad, ya'ni 2014-yildan boshlab Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan haftaning seshanba va juma kunlari bolalar va ularning ota-onalari uchun bepul xizmat ko'rsatish, har yili 2-8-sentabr kunlari "Muzeylar haftaligi"ni tashkil etish belgilandi. Bu tadbirlar ham yoshlarimizning muzeylarga tashrif buyurish jarayonini ommalashtiradi desak xato bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. N.Jo'rayev, A.Zamonov "O'zbekiston tarixi" darslik 2018-yil
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Muzey>
3. Mejdunarodniy den muzeev — — Novosti i afisha muzeev Rossii — — www.Museum.ru „The theme“. 22-fevral 2017-yilda
4. <https://xs.uz/uz/post/muzejlar-eksponatlari>.
5. <https://yuz.uz/uz/news/muzeylarimiz-va-ularda-saqlanayotgan-eksponatlar>